

**“XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA MAKTAB  
TA’LIM TIZIMIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR”  
(DAVRIY MATBUOT SAHIFALARIDA AKS ETISHI)**

**Rajabov Muhiddin**

Toshkent viloyati Zangiota tumani

XTB ga qarashli 14-IDUM

Tarix fani o‘qituvchisi

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda birinchi marta bosma kitob nashr etila boshlandi. Bu g‘oyat muhim tarixiy voqea edi. Lekin O‘rta Osiyoning markaziy shaharlarida bosmaxonalarning tashkil etilishini mustamlakachi ruslarning o‘lkaga ko‘rsatgan “marhamati” sifatida qabul qilish kerak emas.

**Birinchidan,** noshirlik jahon mamlakatlarida keng tarqalib bo‘lgan edi.

**Ikkinchidan,** Turkiston o‘lkasidagi ijtimoiy–siyosiy vaziyat rus hukumatidan bu yerda mustamlakachilikka qarshi kurash avj olib ketishini bartaraf etish uchun muayyan jihatdan mahalliy ijtimoiy talablarga yon berishni talab qilar, bu borada bosmaxona kabi ijtimoiy dunyoqarashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, lekin mavjud mustamlakachilik siyosatiga halal bermaydigan siyosiy vositalardan foydalanishga majbur etardi.

**Uchinchidan,** bosmaxonalar Turkiston o‘lkasidagi kitobga bo‘lgan yuksak talabdan kelib chiqib, iqtisodiy foyda olishni ko‘zlagan holda tashkil etilgan, bu o‘rinda Turkistonga sehrli o‘lka sifatida qaragan rus burjuaziyasining nafi ham yaxshigina rol o‘ynagan edi. Bosmaxonalarniig tashkil etilishiga, ayniqsa, oxirgi sabab katta turtki berganini bu o‘lkadagi noshirlik korxonalarining, asosan rus muhojirlari tomonidan tashkil etilib boshqarilgani ham tasdiqlaydi. Lekin bu siyosiy jarayonlar O‘rta Osiyo xalqlarining savodini chiqarish, madaniy merosiga hissa qo‘shish, ilm–ma’rifatni oshirish, qo‘shni mamlakatlar xalqlari madaniyati bilan tanishtirish, jahonda yuz

berayotgan o‘zgarishlardan voqif qilish yo‘lida olib borilgan harakatlar sifatida baholanishi haqiqiy siyosiy maqsadlarni niqoblash uchungina edi, xolos. To‘g‘ri, bundan o‘lka xalqlariga hech qanday foyda bo‘lmadi, deyish xato bo‘ladi. Ammo siyosatga berilgan ta‘riflardan birida sadaqa berib quldek ishlatish aynan siyosatdagi ifloslik, ya‘ni manfaat yo‘lida vijdon va axloqni ifloslikka bo‘ysundirish, deya ta‘riflanadi.

Xullas, Turkistonda rus zodagonlarining manfaatlariga, qolaversa, o‘sha mafkuraviy tuzum siyosatiga xizmat qiluvchi ma‘naviy qurol sifatida bosmaxonalar tashkil etildi. Bu ayni vaqtda o‘zbek madaniyatida kitoblarni bir vaqtning o‘zida ko‘plab nusxada nashr etilishining boshlanishini bildirar edi[1]

Turkistonda dastlab ish boshlagan bosmaxonalarda avvalo dunyoviy ilm-fan — geografiya, tarix, ma‘dashunoslik, bog‘dorchilik, dehqonchilik, tabobat, aniq fanlarga oid Yevropa mamlakatlari va Rossiya ilmiy hamda ommaviy jamoatchiligiga noma‘lum bo‘lgan asarlarga katta e‘tibor qaratilgan. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bu manbalarga talab va ehtiyoj kattaligi e‘tiborga olingan.

Gazetada bosilgan quyidagi maqola va xabarlardagi lavhalarni kuzatib ham o‘zingiz “Taraqqiy”ning tutgan yo‘lini bilib olasiz: “..dunyog‘a nima uchun kelgonini bilmay ilm va maorifg‘a aslo rag‘bat qilmay jonidin shirin bolalarini ko‘cha bako‘cha kezdurub bechora ma‘sumni aziz umrini jaholat otashina yondiruvchi beahamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur. Ko‘p dindoshlarimizni ko‘rarmizki o‘z farzandlarini aslo maktabga bermay orqalaridan ergashtirib ruslar eshigida o‘zlari kabi xizmatchilikg‘a o‘rgatub dunyo va oxiratni saodati o‘lg‘on ilm va maorifdin mahrum qilmoqdin hech bir ibo qilmaslar....Va bu jaholat xohishudirki, millat foydasi uchun jonini qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni o‘ylaridan chiqarib iste‘dod va g‘ayratlarini choyxona va pivoxonalarg‘a sarf etmakedurlar” ( gazetaning 1-sonidagi Munavvarqorining maqolasidan). “..agar bizlarning maktablarimiz boshqa millat maktablari kabi bir nizomga qo‘yilib yaxshi muallimlik vazifasini lavozimcha ado qilurlik kishilardin muallimlar tayin qilinsa edi ma‘sum avlodlarimiz ruhiy hayotiga, dunyo va oxiratni saodatig‘a birinchi sabab o‘ladurg‘on

ilm va maorifdin bu darajada mahrum o‘limga sabab o‘lmas eduk..”[2]( gazetaning 1-sonidagi maqoladan) “..Madrasalarning ahvolidan kimlar isloh qilurlar, ulamolar, qozilarning so‘zlaridan o‘tib, bir ish qilolmasliklari uchun bu janoblardan isloh umid qilmoq to‘qson yoshliq bir qarig‘ajuzadan farzand umid etmak qabilidandir” (“Taraqqiy” ning 9-sonidagi maqoladan).

“Bizni Toshkentda ichkulik va pivoxo‘rlik chunon shoyi bo‘ldiki, bosh bekatlarimizdan boshlab, dumaxona ulug‘larigacha choy o‘rniga pivo iste‘mol qilurlar.Na ulamolarimizdan, na hukumatlarimizdan bir kishi yuqki, yigitlarimizni ichkulik ichmoqdin man qilsalar.Davlat dumasig‘a vakil saylamoq uchun aholi tarafdin ko‘zlangan ulug‘ pedsdatellarimiz ichkulik ichib, mast bo‘lib, aholi orasida beibo kezmakdalar.Ajabo! Buningday fasod axloq qanday noinsoflikdirki, aholiga va‘z nasihat qilib, tazyiq qaytarmoq va qaytmog‘onni urub, so‘kib tazyiq bermoq vazifalari o‘lg‘on o‘g‘limiz o‘zlarini obro‘yini rus qizlari ila gostinisa zollarida barbod etmakdalar.Allohdan qo‘rqib, xalqdan uyolmaslar” (gazetaning 3-sonidagi maqoladan)[3].

Darhaqiqat, jadidlar matbuoti ichida millat va milliyat masalasiga eng ko‘p e‘tibor qaratgan gazeta ham “Sadoi Turkiston”dir. Gazeta ayniqsa, maorif masalasiga, maktab va madrasalarda islohotni amalga oshirishga alohida ahamiyat qaratdi. Gazetaning o‘z oldiga qo‘ygan dastlabki vazifasi o‘lkadagi maorifning haqiqiy ahvoli yuzasidan jamoatchilikda to‘g‘ri va yorqin tasavvur hosil qilish edi. Turkistonning ta‘lim masalasida ahvoli, undagi hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar va uni isloh etish bilan bog‘liq maqola yoki xabarlar gazetaning deyarli barcha sonlaridan o‘rin olgan. “Sadoi Turkiston”ning 1-2 – sonlarida “Maktab do‘sti” imzosi ostida e‘lon qilingan “Turkiston maktablari” sarlavhali maqolada o‘lkadagi maktablarning ahvoli, ular millat yoshlarining istiqboli nuqtai nazaridan zamona talablariga qay darajada javob bera oladi, degan savollarga javob izlaydi.

Maqolada *“Har mamlakat xalqining taraqqiy va tanazzuli, hayot va mamoti maktab masalasiga bog‘lidir”*, deyiladi. *“Qaysi millatning maktabi tartib va nizomli*

*bo‘lsa, ul millatning istiqboli umidli va dunyoda yashamakka iste’dod va qobiliyatli sanalur. Agarda tartibsiz va nizomsiz bo‘lsa, istiqboli ham qo‘rqunchli va milliy qavmlar qoshida e’tiborsiz, xor zalil hisob o‘linur”* – deb xulosa qilinadi.

Muallif Turkistonda mavjud to‘rt xil boshlang‘ich maktablar haqida fikr bildirib o‘tadi. Ulardan eski usul, usuli savtiya va rus-tuzem maktablarining kamchiliklarini ko‘rsatib, to‘rtinchi usuli jadida maktablarini eng maqbul deb hisoblaydi. Ularda imtixonlarning ochiqligi va ta’limining samaradorligi haqida fikr bildiradi.

Biroq, bunday maktablarning soni nihoyatta kamligi uchun usuli jadid maktablarini ko‘proq ochishga chaqiradi. Gazeta mahalliy xalq bolalari o‘qiydigan maktablarning muttasil rivojlantirib borish maqsadida izchil faoliyat ko‘rsatdi.

Jadid maktablarida o‘tkazilayotgan imtihonlar haqida o‘quvchilarga muttasil axborot berib borildi. Jumladan, gazetaning 13 – sonda Namangandagi jadid maktabida o‘tkazilgan imtihonlar haqida xabar berilgan. Unda o‘quvchilar qisqa muddatda o‘zlashtirgan ilmlarini muvaffaqiyatli namoyish qila olgani yozilgan. O‘z farzandlarning olgan bilimlarini ko‘rgan kuzatuvchi ota-onalar xursandligidan yig‘laganlarini va bu usuli jadidani harom deguvchilarning noxolis ekanligiga e’tibor qaratadi. Keyingi sonida Toshkentdagi Rahimiya qizlar maktabida o‘tkazilgan ochiq imtihon va uni kuzatishga kelganlarning xursand bo‘lganliklari, mudira xonimning boshqalarni ham o‘z farzandlarini maktabga yuborishga chaqirganligi haqidagi xabarga o‘rin berilgan.

“Sadoi Turkiston” o‘z sahifalarida Turkistonning kelajagini ma’rifatli avlod qo‘lida deb hisobladi va bu yo‘lda muallimlarning fidokorona mehnatlariga alohida o‘rin ajratdi. Jumladan, buxorolik Mirzozoda “Ilm va maorif” nomli maqolasida millat kelajagi maktabda va maorifdadir, unga dushmanlik esa millatga dushmanlikdir degan qarorga kelgan.

Gazetaning 33-sonida toshkentlik Mo‘minjon Muhammadjonov “Bizda muallimlar” maqolasida muallimlarga qarata har qanday qiyinchiliklarga qaramay, o‘z ezgu ishingda davom ettirishlarini so‘raydi.



O‘zgandlik muallim R. Halimboyzodaning *“Muallimlar ila xalq orasidagi munosabat” (42-son) sarlavhali maqolasida xalq muallimlarga e’tibor berishi, ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlashi lozimligi haqida so‘z boradi va “muallimlarning muddaosi millatimizga durust ixlos ila xizmat qilish va hamma millatdan orqada qolg‘on ruhsiz millatni oldinga bostirishdir”* – deydi.

“Sadoi Turkiston” ilk sonlaridayoq “Xo‘qandli jigar kabob” imzosi bilan yozilgan “Afsus bizim holimizg‘a” nomli maqola e’lon qilindi. Unda muallif millat bolalarining o‘qimasligi oqibatlarini va ularning kelajagidan umidsizlanadi. Usuli jadid maktablariga qarshi bo‘lganlarga nisbatan “ko‘za sindiruvchilar” deydi.

*“Sadoi Turkiston”ning 4-sonida “Maktablar yopilishi” nomli xabar bosilgan. Unda: “Eski Marg‘ilon shahridagi Usuli savtiya ila maktabdorlik qilg‘uchi Quadratilla qori Shohakimov, Mulla Abduqodir, Mulla Nishonboy ismlik muallimlarning maktablarina Iskobilov (Farg‘ona) inspektori borib ijazatnoma so‘ramish. Muallimlar: “Bizda ijazatlik hech bir maktab yo‘q. Ijazat oling deb bizga hech kim buyurgan ham yo‘q. Agar buyursangiz emdi ariza berib, ijazat olurman” demishlar. Inspektor janoblari: “Yo‘q hozir maktablaringiz yopdim. Avval ijazat olib, maktab binosini yangilab so‘ngra ochurman” deb bolalarni maktabdan chiqarib yubormish. Bu munosabat ila bir necha yuz bola maktabsiz ko‘chalarda sargardon bo‘lib qolmishlar”,* deyilgan.

Umuman, Chor mustamlakachilari bu davrga kelib yangi maktablar ochishga deyarli ruxsat bermay qo‘ydi. Oldin ochilgan usuli jadid maktablarni ham imkon qadar yo‘qotish uchun barcha choralarni ishga solayotgan edi. Shunisi borki, gazeta bittagina material (23-son)da ruscha o‘qishning ijtimoiy hayotda amaliy yordami katta bo‘lishi haqida yozgan. Bu fakt gazetaning millat farzandlariga milliy zamindagi o‘quv yurtlarida ta’lim va tarbiya berishga moyil ekanligini ko‘rsatadi.

Eski ta’lim tarafdorlari uyma-uy kirib odamlarga farzandlarini jadid maktablariga yubormaslikka chaqirdi. Ziddiyat yil sayin kuchayib bordi. 1914 yil Ulug‘bek madrasasi jome’ida muallim Sidqiyni “kofir” deb e’lon qildilar. So‘fizoda vatani Chustdan quvildi, Sebzor qozisi M. Shermuhammedovni toshbo‘ronga buyurdi.

“Sadoi Turkiston” gazetasining 8 – sonida e’lon qilingan Mahmud Bediliyning “Musulmonlar hayotidan bir lavha” maqolasida *“Bir paytlar ilm qudratila olamni titratgan el, bugun jaholat komida zabun”. “Ovro‘pa madaniyati Yaponiyaga boshi bilan, bizga quyrug‘i (orqasi) bilan kirib keldi”* deydi muallif.

U yoshlarni Yevropa ta’limining faqat foydali tomonlarini o‘rganishga, ularning axloqsizlik, moda, ichkilik va shunga o‘xshash nomaqbulliklariga taqlid etmaslikka chaqiradi.

Turkistonda bu yo‘ldagi kamchiliklarni birma-bir sanab o‘tadi *“...chunki, yaxshi tarbiyali usuli ta’limdan xabardor muallim va muallimalar tayyorlaydigan “Dor ul-muallimin va Dor ul-muallimot”larimiz yo‘q. Boshqa millatlar maktablarida o‘qub tarbiya ko‘rgusi kelgon, o‘qushga hushli yoshlarga iona va yordam qiluvchi jamiyatlar hozirda yo‘q hisobindadir. Milliy tarbiyada bo‘lmasdan maxaz yovro‘pa madaniyatidan tarbiyasida bo‘lgan yoshlarimiz nihoyat millatlarini, milliyatlarini unutib alarni nisyo minsiyo qoldiradirlar va o‘z millatlaridan bezadurlar... Bir oz ruscha o‘qusalar aksariyati milliy tilida so‘zlashmakdin orlana boshlaydilar... Endi bizda dunyoda turmak uchun maxaz o‘qimak va milliy tarbiya olub so‘ngra yovro‘pa madaniyatidin iste’foda qilmak lozim. Bo‘lmasa bizni dunyo o‘zida yosharga salohiyatsiz xalq hisob qilib va nihoyat yo‘q qilsa kerak”* – deb, millat kelajagi uchun milliy ta’lim o‘choqlarini yaratish lozimligini uqtiradi.

Shuningdek, Rauf Muzaffarzodaning *“Tarbiyaga ahamiyat bermaymiz”* maqolasi (43-son) insonning ruhiy tarbiyasi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lsa, Karim Norbek o‘g‘lining *“Bizim yoshlarga milliy tarbiya”* maqolasida (43-son) ta’lim va tarbiya masalalariga millat va milliyat nuqtai nazaridan qaraydi.

“Sadoi Turkiston” gazetasi qisqa vaqt faoliyat yuritganiga qaramay o‘z nomi bilan tom ma’noda butun Turkiston xalqlari uchun fikr almashish minbari vazifasini o‘tadi. Ayniqsa, unda mintaqada ta’lim va maorifni rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratildi.

Gazetaning 16 – sonida “Xo‘jandda choyxona va maktab” nomli xabarda Xo‘janddagi ko‘plab so‘lim choyxonalar va ularning boyligi bezaklari, odam bilan

to‘laligi aytiladi. Biroq, buni mavjud atigi ikkita yangi usul maktabining islohma muxtojligi va xarobligi bilan solishtiradi. Bu ikki joyning millat ravnaqida qanday roln o‘ynashini farqlash zarurligini aytib, maishatdagi odamlarning o‘z farzandlari taqdiriga e‘tibor qaratishiga va ularni o‘qish ishlariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishlariga chaqiradi. 19 – sonida esa “Qozoq bolasi” imzosi bilan yozilgan xabarda Turkistondek ulug‘ shaharda usuli jadid maktabi yo‘qligini afsus bilan ma‘lum qiladi.

Gazeta yuqorida ta‘kidlanganidek, butun Turkistondagi ma‘rifiy jarayonlarga alohida e‘tibor bilan qaragan. Jumladan, “Sadoi Turkiston”ning 28 – sonida “Qirg‘izlar ichida taraqqiy asari” nomli xabar berilgan. Unda O‘sh u‘ezdining Qurshob degan qirg‘iz qishlog‘ida ochilgan jadid maktabiga Toshkentdan G‘ulom Zafariyni chaqirib besh oy davomida yangi usulda ilm berganini yozadi.

O‘tgan asrning boshlarida Turkiston madrasalari o‘zining avvalgi mavqeini butunlay yo‘qotib bordi. Bunga asosiy sabab o‘lkaning mustamlakachilik zulmi ostiga tushib qolishi va madrasalarning azaliy daromad manbalari bo‘lgan vaqf mulklarining tortib olinishi edi.

Natijada ko‘plab madrasalar og‘ir iqtisodiy ahvolda qoldi. Vaqf mulklari mavjud bo‘lgan Buxoro madrasalari ham uzoq yillar davomida isloh qilinmagani bois ta‘lim usullari eskirgan zamonaviy talablardan uzoq edi. Shuning uchun bu madrasalar usuli jadid maktablari uchun kadrlar etishtirib bera olmas va yangi o‘quv kurslarining ochilishini taqozo etar edi.

“Sadoi Turkiston”ning 18 – sonida No‘shiravon Yovushevning “Maktab va muallimlarimiz” maqolasi chiqdi. Unda Turkistonda o‘qituvchilar tayyorlaydigan zamonaviy tipdagi Dor ul-mualliminlar, usuli ta‘lim va tarbiya kurslari yo‘qligi tufayli hech bo‘lmaganda, “Usuli ta‘lim va tarbiya” risolasini tayyorlab nashr etish yuzasidan taklif kiritdi. Bu tadbir o‘qituvchilarga o‘qitish metodikasi yuzasidan muayyan engilliklar yaratar edi.

“Sadoi Turkiston” 19 – sonida N. Yovushevning “Usuli jadida madrasasi” maqolasida Turkiston madrasalari va unda yangi usullarni joriy etish, jumladan, tarix,



tabiiy fanlar, riyoziyotlarni kiritish, oliy ta’limda islom huquqi kabi yangi kitoblarni joriy etishga chorlaydi.

Shuningdek, Tataristondagi usuli jadida maktablarining tarkibi yuzasidan ma’lumotlar berib, ichki Rossiya musulmonlari yashaydigan mintaqalarda usuli jadida madrasalari ham mavjudligi haqida fikr bildiradi.

Muallif turkistonlik qardoshlarini ana shu o’quv maskanlari bilan tanishishga, ularda mavjud kitoblardan foydalanishga da’vat etadi. U gazetaning 20 – sonida bosilgan “Hozirgi madrasalarda o’quv” sarlavhali maqolasida Turkiston madrasalarida o’qitilayotgan fanlarning mundarijasi, ularning hozirgi zamon talablariga qay qadar javob bera olishlari, mazkur ilm maskanlarida o’qituv tizimini isloh etish zaruriyatiga to’xtaladi.

Bunga Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Andijon va Marg‘ilon mudarrislari qanday qarayotganligi haqida tahliliy fikr yuritadi. Bu faktlar gazetaning ibtidoiy maktablardagina emas, madrasalarda ham o’qitish tizimiga isloh kiritilishi uchun astoydil harakat qilganligini ko‘rsatadi.

Bu mavzuga “Sadoi Turkiston” ning 46-sonida buxorolik Muftizoda ham o‘z mulohazalarini bildiradi. Uning “Ulamolarimizga” maqolasi diniy ulamolarga qarata “... *Ulamolarimiz ishimizning istiqboliga qaramasalar va harakat qilmasalar, biz qachon maydoni taraqqiyga yuzlanamiz?*” – deydi.

Gazetaning 47 – sonida “*Bir mullabachcha*” imzosi ostida “*Madrasalarimiz na holda*” sarlavhali maqola chop etilgan. Unda madrasa ta’limining kamchiliklari, mudarrislarning dars o‘tishga rag‘batsizligi va talabalarning haftada uch kun dars bo‘lmasligini, ularning vaqtini bekorchilikda o‘tkazishini qalamga oladi.

Muallif Orenburgdagi “Husayniya” va Ufadagi “Oliya” madrasalarining dasturlarini qabul qilib, yangi usulda o’qitish kerak, deb hisoblaydi.

“Sadoi Turkiston”ning 55-sonida “M.Sh.” imzosi ostida “Mullalarimizda darajai fikriya” sarlavhali maqola bosilgan. Unda muallif kim millatni zalolatdan, jaholatdan qutqaradi, degan masalani qo‘yadi. Mullalarning fikr darajasi pastligi, zamona



ahvolidan tamoman begonaligini aytadi. Buning chorasi sifatida madrasa ta'limini keng qamrovli isloh qilishga chaqiradi.

Gazetaning 56-59 va 62-sonlarida bosilgan Rauf Muzaffarning “Maorif manbalarimiz” sarlavhali maqolasida ham madrasalardagi ta'lim berish holati va usuli tadqiq etilib, Qozon, Orenburg va Ufadagi madrasalar tajribasini o'zlashtirish kerak, degan xulosaga keladi.

“Sadoi Turkiston”ning 62- va 65- sonlarida Qozondagi “Muhammadiya” madrasasi haqida ma'lumotlarga o'rin berilgan. Unda madrasa necha qismdan tarkib topgan, qabul shartlari, mavjud uch qismni bitirganlar kim bo'lib ishlay olishlari hamda ichki tartib qoidalari muxtasar bayon qilingan.

Ushbu materiallar “Sadoi Turkiston”ning “Nizomli madrasalar” rukni ostida chop qilingan. Gazetada “Nizomsiz madrasalar” rukni ham bo'lib, unda Buxoro madrasalari yuzasidan ma'lumotlar o'rin olgan edi.

“Sadoi Turkiston” boshqa jadid vaqtli matbuotlariga nisbatan o'z sahifalarida siyosiy xabarlarga keng o'rin berilgani bilan ham farq qiladi. Jumladan, “Sadoi Turkiston”ning 17 – sonida “Turk Yunon ixtilofi” haqida o'quvchilarga batafsil ma'lumot beradi. Unga Turkiyaga nisbatan Yunonistonning tahdidi, turklarning yunon xalqiga nisbatan “zulmi” aslida siyosiy bahona ekanligiga e'tibor qaratadi.

Rossiya imperatorining Ruminiya qiroli bilan uchrashuvi haqidagi ma'lumotni “Xabarlar” sahifasining eng so'ngida berilganligi ham gazetaning ma'lum fikrini ifodalaydi.

“Sadoi Turkiston”ning 18 – sonida berilgan “Bolqon yana qon istayur” maqolasida I va II Bolqon urushi voqealari taftish etiladi. O'quvchiga voqelikni uqtirar ekan, muallif Ovro'pa mamlakatlarining imperialistik manfaatlari yuzasidan kurashlarida ko'plab tinch aholining qoni bekorga to'kilayotganiga, ayniqsa ularning Turkiyaga nisbatan noxolis da'volariga to'xtaladi.

Shuningdek, “Turkiya-Rossiya munosabati” nomli maxsus maqolaning nomidan ham ma'lum ma'no yashirin ekanligini anglash qiyin emas (Rossiya-Turkiya emas). Unda turk-rus ixtiloflari haqida yozar ekan, buning tarixiga murojaat etib, Rossiyaning

Konstantinopolga davosi haqida o‘quvchilarga xabar beradi. Bir paytda o‘zaro aloqalarning yaxshilanayotganligi bilan qutlaydi.

“Sadoi Turkiston”ning 30 – sonida bosilgan “Ovro‘pa majorosi” nomli maqolada bu urushning mavjud harbiy ittifoqlar tomonidan amalga oshirilgan uzoq tayyorgarlikdan so‘nggi mevasi ekanligiga, aslida shahzoda Ferdinantning o‘limi bir bahona ekanligiga to‘xtaladi[5].

Umuman, jadid matbuotida atrof musulmon mamlakatlari, ularning ahvoli haqida doimiy ma’lumotlar berib borilgan. Jumladan, “Sadoi Turkiston” gazetasining 17 – sonida “Eron mustaqilmi?” maqolasida Eronning ahvoli qalamga olinib, shimolda ruslar, janubda inglizlar va Markazda ojiz va iqtidorsiz yarim mustamlaka Eron shohining nomigagina mustaqil ekanini yoziladi.

Gazetaning 59 – sonida “Qars musulmonlarining ahvoli” nomli maqola chop etildi. Unda urush maydoniga aylanib qolgan Qars musulmonlarining og‘ir ahvoli haqida xabar berib, barchani ularga yordamga chaqiradi.

“Sadoi Turkiston” gazetasi sahifalarida berilgan har bir material, albatta chor senzurasini tomonidan sinchiklab o‘rganilganidan so‘ng nashr etilgan. Shu bois, bu davrda chiqqan ayrim sonlarida katta-katta o‘rinlarning bo‘sh yoki qoraga bo‘yalgan holda nashr etilganining guvohi bo‘lamiz.

Xulosa o‘rinida aytish mumkinki, “Sadoi Turkiston” gazetasi maktab va madrasalar islohi, muallim va mudarrislarning saviyasi, kasbiy salohiyati, ta’lim va tarbiya usullari to‘g‘risidagi dolzarb va o‘tkir materiallarni berib bordi. O‘sha davrda muharririyatga kelgan turli xabar va maktublar ham mazkur maqolalarning katta ta’sir kuchiga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. “Sadoi Turkiston” ham iqtisodiy qiyinchiliklar oqibatida o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi. 1915 yil 10 aprelni sanasi bilan bosilgan 66-soni uning so‘nggisi bo‘ldi. Biroq, gazeta XX asr boshlaridagi o‘zbek milliy matbuotining eng yorqin yulduzlaridan biri sifatida tarixdan joy oldi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Abduazizova N.A., Qayumov A. Turkiston matbuoti tarixi tadqiqotchilar nazdida // Jamiyat va boshqaruv. – T., 2004. – №4. – B. 15–16.
2. Abduazizova N.A., Ma’naviyat ko‘zgusi // Jamiyat va boshqaruv. – T., 2007. – №3. – B. 41–13.
3. Абдулла А. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // Туркистон, 1989.18 июль.
4. Бобожонова О. Ўзбекистоннинг кўхна китоблари // “Мозийдан садо”. – Т., 2006. – №4. – Б. 8.
5. Каттабоев А. Ўзбекистон китоб наشري тарихига доир // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Т., 1998. – №2. – Б. 43.
6. Пидаев Т., Ҳалимова С. Убайдулла Асадуллахўжаев ва “Садои Туркистон” газетаси // Ўзбекистон матбуоти. – Т., 1997. – №1. – Б. 14.
7. Пидаев Т., Дўстқораев Б. “Тараққий” газетаси // Халқ сўзи. 1993. 11 июнь.

